

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024- yil yanvar-mart

	<i>Mrd so'm</i>	<i>2023- yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot		
Sanoat mahsuloti		
Istemol tovarlari		
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari		
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar		
Qurilish ishlari		
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)		
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)		
Chakana savdo tovar aylanmasi		
Xizmatlar, jami	4 856,5	109,3
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.) ¹⁾		
Eksport		
Import		
Saldo (+,-)		

V. XIZMATLAR



2025- yilning yanvar-mart oylarida xizmatlarning umumiy hajmi 4 856,5 mlrd soʻmni tashkil qildi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga oʻsdi, shu jumladan savdo hamda ushbu sohalarida koʻrsatilgan xizmatlari 1 144,5 mlrd soʻmni (113,9 %), transport xizmatlar 578,0 mlrd soʻmni (110,6 %), boshqa xizmatlar 338,6 mlrd soʻmni (110,4 %) tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan koʻrsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni oʻz ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi maʼlum vaqt davomida isteʼmolchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qoʻshgan holda) koʻrsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi – 74,8 %



Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi - 3 151,7 ming soʻm



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi – 64,8 %



Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari
(2025- yil yanvar-mart)



Xizmatlar sohasi hajmining oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 109,3 %ni tashkil etdi.



**Bozor xizmatlari hajmi, o‘shish darajasi va shahar, tumanlar
kesimida taqsimlanishi
2025- yil yanvar-mart**

	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	4 856,5	109,3	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	1 600,0	107,4	32,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	55,3	112,5	1,1
Baxmal	229,7	116,1	4,7
G‘allaorol	252,2	110,3	5,2
Sharof Rashidov	416,8	113,7	8,6
Do‘stlik	83,1	108,2	1,7
Zomin	243,9	112,4	5,0
Zarbdor	100,0	109,2	2,1
Zafarobod	67,1	103,1	1,4
Mirzacho‘l	50,7	108,7	1,0
Paxtakor	111,9	105,3	2,3
Forish	138,9	111,9	2,9
Yangiobod	22,1	124,7	0,5

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Jami xizmatlar ko‘rsatkichi tahlil qilinganida, yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiobod (124,7 %), Baxmal (116,1 %), Sharof Rashidov (113,7 %) va Arnasoy (112,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan
(ko‘rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi**


	<i>Miqdori, (mlrd so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Xizmatlar – jami	4 856,5	109,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	190,2	117,4	3,9
moliyaviy xizmatlar	720,6	106,4	14,8
transport xizmatlari	578,0	110,6	11,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>554,3</i>	<i>110,1</i>	<i>11,4</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 234,9	107,8	25,4
savdo xizmatlari	1 144,5	113,9	23,6
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	70,8	104,5	1,5
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	149,9	96,6	3,1
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	97,1	109,3	2,0
ijara xizmatlari	59,6	107,3	1,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	103,0	106,2	2,1
shaxsiy xizmatlar	115,7	108,2	2,4
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	53,6	100,3	1,1
boshqa xizmatlar	338,6	110,4	7,0

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (25,4 %), savdo xizmatlari (23,6 %), moliyaviy xizmatlar (14,8 %) hamda transport xizmatlari (11,9 %) tashkil etdi.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), ijara xizmatlari (1,2 %) hamda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (1,5 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, % da
2025- yil yanvar-mart oylari

■ 2023-yil yanvar-mart
 ■ 2024-yil yanvar-mart
 ■ 2025-yil yanvar-mart




**Xizmatlar tarkibida korxonalarining toifalari bo'yicha
ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da**



Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (23,6 %) tashkil etdi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 52,8 %, avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 41,1 % va ulgurji savdo xizmatlari 6,1 %ni tashkil etdi.



**Savdo xizmatlari hajmi, o‘shish darajasi va shahar, tumanlar
kesimida taqsimlanishi**
2025- yil yanvar-mart


	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar-martiga nisbatan % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	1 144,5	113,9	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	469,5	119,4	41,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	21,2	108,5	1,9
Baxmal	72,9	112,4	6,4
G‘allaorol	112,1	107,3	9,8
Sharof Rashidov	97,5	111	8,5
Do‘stlik	32,7	107,4	2,9
Zomin	78,9	112,3	6,9
Zarbdor	32,1	107,7	2,8
Mirzacho‘l	21,7	107,3	1,9
Zafarobod	17,4	106,6	1,5
Paxtakor	35,0	110,1	3,1
Forish	41,3	107,2	3,6
Yangiobod	8,4	107,9	0,7

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Savdo xizmatlari bo‘yicha tahlil qilinganida, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax shahrida (119,4 %), Baxmal (112,4 %), Zomin (112,3 %) va Sharof Rashidov (111,0 %) tumanlarida qayd etildi.


Yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘atlari esa, Zafarobod (106,6 %) va Forish (107,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da
2025- yil yanvar-mart



Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (41,0 %), G'allaorol (9,8 %), Sharof Rashidov (8,5 %), Zomin (6,9 %), Baxmal (6,4 %) va Forish (3,6 %) tumanlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining tarkibi, % da
2025- yil yanvar-mart



Xizmatlar tarkibida savdo va moliya xizmatlaridan keyin transport xizmatlari ulushi (11,9 %) yuqoriligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, qayd etish joizki yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 11,4 % bilan asosiy ustunlikka ega.


Transport xizmatlari hajmi, o'sish darajasi va hududlar kesimida taqsimlanishi
2025- yil yanvar-mart

	<i>Hajmi, mlrd so'mda*</i>	<i>2024- yil yanvar-martga nisbatan % da</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	578,0	110,6	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax sh.	105,9	112,9	18,3
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	3,8	109,2	0,7
Baxmal	41,9	107,1	7,2
G'allaorol	40,2	108,5	7,0
Sharof Rashidov	169,2	109,3	29,3
Do'stlik	15,1	122,8	2,6
Zomin	44,3	108	7,7
Zarbdor	17,1	107,8	3,0
Mirzacho'l	6,3	110,2	1,1
Zafarobod	7,2	110,5	1,2
Paxtakor	14,2	107,3	2,5
Forish	48,6	112,5	8,4
Yangiobod	2,9	107,6	0,5

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.*

Tumanlar o'rtasida transport xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Do'stlik (122,8 %), Jizzax shahri (112,9 %) va Forish (112,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-mart**




Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (29,3 %), Jizzax shahri (18,3 %), Forish (8,4 %), Zomin (7,7 %) va Baxmal (7,2 %) tumanlari qayd etildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning zamonaviy turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.


2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 190,2 mlrd so'mga teng bo'ldi. 2024- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 117,4 %ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'rish sur'atlari, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (72,2 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to'g'ri keldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da 2025- yil yanvar-mart




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2025- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 720,6 mlrd so'mga yetdi va o'sish sur'ati 106,4 % ni tashkil qildi.

Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati dinamikasi, % da



Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
2025- yil yanvar-mart



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (93,7 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 5,2 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 1,1 % ni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining hajmi, o‘shish sur‘ati va aholi jon boshiga hududlar kesimidagi holati

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m*	2024- yil yanvar-martiga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2024- yil yanvar-martiga nisbatan % da
Jizzax viloyati	4 856,5	109,3	100,0	3 151,7	107,2
<i>shahar:</i>					
Jizzax	1 600,0	107,4	32,9	7 984,0	105,2
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	55,3	112,5	1,1	1 117,1	110,9
Baxmal	229,7	116,1	4,7	1 315,7	113,6
G‘allaorol	252,2	110,3	5,2	1 320,2	108,2
Sharof Rashidov	416,8	113,7	8,6	1 669,4	111,0
Do‘stlik	83,1	108,2	1,7	1 170,6	106,8
Zomin	243,9	112,4	5,0	1 321,8	109,7
Zarbdor	100,0	109,2	2,1	1 034,8	107,2
Mirzacho‘l	67,1	103,1	1,4	1 189,5	101,5
Zafarobod	50,7	108,7	1,0	928,0	107,1
Paxtakor	111,9	105,3	2,3	1 356,9	103,5
Forish	138,9	111,9	2,9	1 390,6	110,4
Yangiobod	22,1	124,7	0,5	730,9	123,0

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (32,9 %), Sharof Rashidov (8,6 %) va G‘allaorol (5,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


Jizzax viloyati bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-mart



Ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Yangiobod (0,5 %), Zafarobod (1,0 %) va Arnasoy (1,1 %) tumanlari qayd etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (7 984,0 ming so‘m) bo‘lib, o‘sish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo‘yicha hajmi va o‘sish sur‘ati, % da
2025- yil yanvar-mart



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (730,9 ming so'm), Zafarobod (928,0 ming so'm) va Zarbdor (1 034,8 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha
xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati, % da
2025- yil yanvar-mart**



2024-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil qildi, hajmi esa 190,6 mlrd so'mga ko'payib, 1 234,9 mlrd so'mga yetdi.


Ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'atlarining pasayishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi kamayganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da 2025- yil yanvar-mart



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (94,7 %) tashkil etadi.


Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari 2025- yil yanvar-mart



Qayd etish joizki, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Zomin tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga kamaydi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 3,1 % ni tashkil etib, hajmi 149,9 mlrd so'm, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga kamaydi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Sharof Rashidov tumanida 173,6 % ga o'sib, bu sohada ytakchilik qilmoqda.

2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati, % da





Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Baxmal (130,7 %), Zafarobod (103,8 %) va Paxtakor (103,1 %) tumanlarida kuzatildi.

2025-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami 97,1 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 % ga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Zomin (121,3 %), Sharof Rashidov (116,4 %) va Mirzacho'l (115,8 %) tumanlarida kuzatildi.

2025- yil yanvar-mart oylarida sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlarning hududlar bo‘yicha o‘shish sur‘ati, % da



2025-yil yanvar-mart oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi 97,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 2,0 %ni tashkil etdi.

2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,3 %ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun:

2024- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmatlar hajmi 74,0 mlrd so‘mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 1,8 %ini tashkil etgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar G‘allaorol (103,1 %) tumani nisbatan past o‘shish sur‘atiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.